

SHoymardonova Yodgoraoy Zokir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-23-guruh talabasi.

RAQAMLI TA'LIM TEXNALOGIYALARI VSITASIDA BOLALAR BOG'LANISHI NUTQINI O'STIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolqda raqamli texnologiyalar vositasida talimdagi rivojlanishning bosqichlari yoritildi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohani qamrab olmoqda. SHuningdek, ta'lim jarayoni uchun ham raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. CHunki, o'quvchilarga eng so'ngi yangiliklar va yangicha metodlar yoki dedaktik o'yinlar asosida darsni qiziqarli tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

KALIT SO'ZLAR: Raqamli texnologiyalar, axborot, sinf, malakali kadr, axborot madaniyati, bilim, ko'nikma malaka.

Hozirgi zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har bir sohada zamonaviy texnik vositalar kirib kelmoqda. Buning isbotini ta'lim sohasidagi tubdan o'zgarishlar jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Bularga misol qilib darsliklardagi o'zgarishlarni keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari o'qituvchi dars jarayonini tashkil etishda ham turli xil multimedia vositalari, elektron doskalar, televizor kabi vositalardan foydalanishi va foydalanishni bilishi zarur, Ushbu vositalar zamonaviy talim jarayonini tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, bular ta'lim darajasini sifatini yanada oshiradi.

Ta'limda yuqorisamaradorlikka erishish uchun o'qitishning noan'anaviy metodlaridan yani zamonaviy va sinovdan o'tgan, samarali bo'ladigan metodlardan foydalanish kerak. Bu ta'limda innavatsion jarayoni hisoblanadi. „Innavotsoya“ - yangilik demakdir.

Hozirgi zamonda dars jarayonini tashkil etishda 4K modelidan keng foydalanilmoqda. Darsliklar ham 4K modeli asosida ishlab chiqilmoqda. Ya'ni bu jarayon o'quvchilarni ko'proq kretik ya'ni tanqidiy, mantiqiy fikrlashga undash hisoblanadi. 4K o'z ichiga quydagilarni jamlaydi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobilyatini rivjlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab- quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishda ko'maklashadi. Ushbu jarayonda bolada nutqiy qobilyat ham shakllana boshlaydi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innavatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashda, suhbatlashishni tinglashga va tushunishga, malumotni yetkizishga til vosiralaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kretik(tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikrini va mulohazalarni shakllantirish ko'nikmalarini rivjlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'yinlarni egallagan davlatlar talimda o'quvchilarda 4K ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishmoqda.

XULOSA qilib aytganda, zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta'limiy mashqlar, yangi yangi metodlar barchasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshirishda xizmat qiladi. Biz pedagoglarning asosiy maqsadi ham shudir. Bizning o'quvchilarimiz kelajakda O'zbekistonimizga foydasi tegadigan, mustaqil fikrni, tadbirkor va tashabbuskor kadrlar bo'lib yetishishlari kerak. Ularning asosiy poydevori esa maktab hisoblanadi. Ta'limni qanchalik ko'p isloh qilsak, albatta maqsadimizga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yo'ldosheva D.Hamrayeva SH .Talimda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. Ttoshkent 2017-yil.
- 2.Ataboyeva N, Jabborova S, Madaminova D. SHavkatova M. Raqamli texnologiyalar vosirasida ra'lim muhitining rivojlanishi.(2024).
- 3.A Sattorov. Informatika.
- 4.Qosimov S Axborot texnologiyalari.G'ulomov C.C va boshqalar.